

**“Olmaliq KMK” AJda manfaatlar  
to‘qnashuvini  
boshqarish to‘g‘risidagi  
NIZOM**

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ijro apparati, hamda tarkibiy bo‘linmalar (keyingi o‘rinlarda – Kombinat deb yuritiladi)da manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish mexanizmini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom qoidalari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan xizmat vakolatlaridan qat’iy nazar Kombinatning barcha xodimlarga (keyingi o‘rinlarda – xodimlar deb yuritiladi) nisbatan tatbiq etiladi.

3. Mazkur Nizom Kombinatda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va boshqarish masalalaridagi asosiy ichki normativ hujjat hisoblanadi va barcha xodimlar tomonidan uning qoida va talablariga so‘zsiz rioya qilinishi shart.

4. Kombinat xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq masalalar Kombinat ijro apparatidagi Kadrlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘linmalar (keyingi o‘rinlarda – Xodimlar bilan ishlash xizmati deb yuritiladi) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

5. Mazkur Nizom maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**aloqador shaxslar** – Kombinat xodimi bilan birga boshqa tijorat tashkilotlarning ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar (aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno);

**kronizm** – do‘stlar yoxud ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat (lavozim mavqesidan) va obro‘sidan foydalanish;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – Kombinatda muayyan lavozimni egallab turgan shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini obektiv va xolis bajarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi yoki shunday ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar manfaatlar to‘qnashuvi hisoblanadi. Bunday vaziyatlarni oshkor qilish va ularning oldini olish bo‘yicha o‘z vaqtida chora ko‘rmaganlik o‘rnatilgan tartibda javobgarlikni keltirib chiqaradi;

**manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish** – xodimlar tomonidan ehtimoliy yoxud haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e’lon qilish tartib-taomili;

**manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish** – Kombinat tomonidan xodimlarning xizmat majburiyatlari lozim darajada bajarilmasligi holati va (yoxud) manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda ularning manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlar) Kombinat manfaatlaridan ustun kelishi xavfini kamaytirish yoxud bartaraf etish;

**mahalliychilik** – shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoxud mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e’tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va yuqori lavozimga tayinlash;

**nepotizm** (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) – o'zining yaqin qarindoshlari yoxud do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoxud) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoxud) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Kombinat manfaatlariga zarariga, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash;

**ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi** – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoxud) Kombinat bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlarini (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa manfaatlarini) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular Kombinat manfaatlariga qarama-qarshi bo'lishi va Kombinat xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat;

**haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi** – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoxud) Kombinat bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlarini (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlarini) Kombinat manfaatlariga bevosita yoxud bilvosita qarama-qarshi bo'lgan vaziyat;

**urug'-aymoqchilik** – Kombinat xodimining avlod-ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subektiv va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

**favoritizm** – Kombinat xodimi boshqa shaxs va/yoxud shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs yoxud shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Kombinatda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoxud sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvalarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda Kombinatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartiblarga rioya qilmaslik;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoxud xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoxud xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoxud nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlarini);

**xodim (xodimlar)** – Kombinat ijro apparati va/yoxud tarkibiy bo'linmalar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan har qanday jismoniy shaxs, shu jumladan Kombinat boshqaruvi a'zolari;

**shafelik** – Kombinat xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

**yaqin qarindoshlar** – ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar va opa-singillar, er (xotin), farzandlar, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobolar, buvilar, nevaralar, shuningdek urning (xotinning) ota-onasi.

## **2-bob. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tamoyillari**

6. Kombinat xodimlari manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilishlari shart:

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

Kombinat xodimlari tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishda Kombinat va uning tarkibiy bo'linmalari hamda davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatdorlikdan ustun qo'yishi;

Kombinat xodimlari tomonidan oshkoralik, ochiqlik, shaffoflik, vijdonlilik, betaraflik va xolislik tamoyillari asosida qarorlar qabul qilinishi;

xodimlar tomonidan ehtimoliy yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor qilishning majburiyligi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktik choralarning ustuvorligi;

manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ko'rib chiqish va manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda jamoaviylik tamoyiliga amal qilishi;

manfaatlar to'qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni ko'rib chiqish, baholash va hal qilishda xolislik va betaraflik tamoyili asosida yondashish;

ushbu Nizomda belgilangan tartibda Kombinat xodimlari tomonidan taqdim etilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanishi;

agar xodim biron-bir qaror qabul qilishdan avval yoki o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida tegishli tartibda xabar bergan hamda Kombinat ijro apparati va tarkibiy bo'linmalarining manfaatlari foydasiga o'z shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo'lsa, uni haqiqiy yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi sababli ishdan bo'shatilishiga yo'l qo'yilmasligi kafolatlarini ta'minlash.

### **3-bob. Mas'ul tarkibiy tuzilmalar, xodimlarining huquq va majburiyatlari**

7. Kombinat xodimlari o'zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishida va (yoxud) Kombinatning manfaatlarini ifodalashda ushbu Nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o'zlarini saqlashlari (tiyilishlari) shart.

8. Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun Kombinatning barcha xodimlari:

ushbu Nizom talablariga qat'iy va so'zsiz rioya qilishi;

faqat Kombinat manfaatlarini ko'zlashi;

o'z mansab va xizmat mavqeidan faqat Kombinat manfaatlari yo'lida foydalanishi;

Kombinat va uning tarkibi manfaatlariga zid keladigan yoxud zid kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatlar to'g'risida Kombinat ijro apparatidagi **Komplaens-nazorat xizmati** (keyingi o'rinlarda – Kombinat Ichki nazorat tuzilmasi deb yuritiladi)ni zudlik bilan (<https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyani-oldini-olish-boyicha-murojaat>) xabardor qilishi;

nepotizm (qarindoshlik), shafelik, favoritizm, kronizm, mahalliychilik va urug'-aymoqchilikning har qanday ko'rinishiga qat'iy chek qo'yishi;

ehtimoliy yoxud haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni zudlik bilan va to'liq oshkor qilishi;

o'zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq ro'yxatini, o'zining va ularning davlat yoxud nodavlat notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlarni halol, to'liq va vijdonan oshkor qilishi;

Manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, xarid qilish tartib-taomilini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan Kombinat xodimini bajariladigan vazifalardan chetlashtirilishi;

Basharti, Kombinatning boshqa xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligiga oid ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda ichki normativ hujjatlarda belgilangan tartibda xabar berishi shart (<https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyani-oldini-olish-boyicha-murojaat>).

9. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida, Kombinat xodimi quyidagi hollarda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida zudlik bilan xabar berishi kerak, basharti:

rahbar xodimning bevosita bo'ysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoxud) aloqador shaxslar bo'lsa;

belgilangan tartibda faoliyati o'rganilayotgan tashkilotda (Kombinat ijro apparati va/yoxud tarkibiy bo'linmada) xodimning yaqin qarindoshlari va (yoxud) aloqador shaxslar faoliyat yuritsa yoxud belgilangan tartibda faoliyati o'rganilayotgan mansabdor shaxs xodimning yaqin qarindoshi va (yoxud) aloqador shaxs bo'lsa;

xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to'qnashuvi ko'rinishlari ehtimoli mavjud bo'lsa;

har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoxud mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborot mavjud bo'lsa;

Xodim yaqin qarindoshlari va (yoxud) aloqador shaxslarga nisbatan xodimlarga (jumladan, ish haqini hisoblash va to'lash, mukofotlar, ustamalarga taqdim etish va ularning miqdorini belgilashga) oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etsa;

Mavjud bo'lgan yoki taxmin qilinayotgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar topgan xodimlar bu haqda bevosita rahbarini hamda Kombinatning ichki nazorat tuzilmasini (<https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyani-oldini-olish-boyicha-murojaat>), yoxud vakolatli davlat organini xabardor etishi shart (<https://anticorruption.uz/uzc/item/contact>).

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotlarni olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi hamda vakolatli davlat organini ko‘rilgan choralar to‘g‘risida xabardor qilishi lozim.

Mazkur ro‘yxat yakuniy hisoblanmaydi. Kombinat xodimi yaqin qarindoshlari va (yoxud) aloqador shaxslarga nisbatan (ular faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga) har qanday qarorlar qabul qilish (imtiyozlar berish, litsenziyalar taqdim etish, xaridlarni amalga oshirish, mahsulotlar sotib olish va shu kabilar) holati ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarda, xodim manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishi lozim bo‘ladi.

10. Ushbu Nizomning 9-bandida qayd etilgan manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq vaziyatlarni aniqlash uchun xodim qaror qabul qilishdan oldin yoxud xizmat majburiyatlarini bajarishdan avval o‘ziga quyidagi savollarni berib ko‘rishi lozim:

“Men qarorni vijdonan va xolis qabul qilishim, harakatni amalga oshirishim mumkinmi?” va “Basharti bu qarorni boshqa xodim qabul qilganda, xuddi men qabul qilgan qarorni qabul qilgan bo‘larmidi?”.

Basharti xodim bu savollardan bittasiga bo‘lsa ham “Yo‘q” deb javob bersa, demak, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi xatari yuzaga keladi.

11. Kombinatda manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash maqsadida quyidagilar amalga oshiriladi:

nomzodlarni ishga qabul qilish yoxud xodimlarni lavozimga tayinlashda, shuningdek boshqa holatlarda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaruvchi axborot jamlanadi;

har bir xodim mansab yoxud xizmat majburiyatlarini bajarishida yuzaga kelgan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi holatini aniqlaydi hamda bir vaqtning o‘zida bevosita rahbariga, Xodimlar bilan ishlash xizmati hamda Kombinat Ichki nazorat tuzilmasiga (<https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyani-oldini-olish-boyicha-murojaat>) xabar beradi;

manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan har bir ma‘lumot yoxud xabar Kombinat tomonidan jamoaviy/hay‘at (Kombinatning Odob-ahloq komissiyasi tomonidan) tartibida o‘rganilib, uning ta’siri baholanadi.

Qonun hujjatlari talablari doirasida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning boshqa usullaridan ham foydalanish mumkin.

12. Manfaatlar to‘qnashuvi Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan quyidagi usul va shakllarda boshqariladi:

nomzodlarni ishga qabul qilishda, xodimlarni lavozimga tayinlashda yoxud ularni rotatsiya qilishda ularga mazkur Nizom talablari imzo qo‘ydirilgan holda tanishtiriladi;

ushbu Nizomning talab va qoidalari bo‘yicha xodimlarga muntazam ravishda tushuntirish va maslahatlar berish ishlari olib boriladi;

aniqlangan har bir manfaatlar to‘qnashuvi holati maxsus jurnalda ro‘yxatdan o‘tkaziladi va qayd qilib boriladi;

manfaatlar to'qnashuvi holatlarini o'rganish, ularga baho berish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarini belgilash hamda ularning ijrosini ta'minlash bevosita Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan amalga oshiriladi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish jarayonining samaradorligini ta'minlash maqsadida Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan muntazam va tizimli tarzda tahlil hamda monitoring tadbirlari amalga oshiriladi.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarishda qonun hujjatlari talablari asosida boshqarishning boshqa usullari ham qo'llanilishi mumkin.

13. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda Kombinatning Odob-ahloq komissiyasi tomonidan quyidagi choralar ko'rilishi mumkin:

xodimning tegishli faoliyatni amalga oshirishda yoxud qaror qabul qilishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etmasligi yoxud o'zini o'zi (самоотвод) chetlatishga ruxsat berish;

xodimning lavozim vakolatlari, vazifa va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish va (yoxud) zaruratga ko'ra, uning lavozim yo'riqnomasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

xodimning shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan axborot va ma'lumotlarga cheklovlar o'rnatish;

xodimning shaxsiy manfaatlari uning lavozim majburiyatlariga zid bo'lsa, uni manfaatlar to'qnashuvi ta'sir etmaydigan boshqa lavozimga o'tkazish;

xodimning Kombinat faoliyatiga yoxud manfaatlariga salbiy ta'sir etuvchi o'zining shaxsiy manfaatlaridan voz kechishi;

xaridlar ishtirokchisi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa, ishtirokchi xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatiladi;

xodimning shaxsiy manfaatlari Kombinat faoliyatiga yoxud manfaatlariga zid bo'lsa hamda uni boshqarishning boshqa choralarini qo'llash imkoni bo'lmasa xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish.

#### **4-bob. Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va ko'rib chiqish tartibi**

##### **1-§ Manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishning umumiy qoidalari**

14. Kombinatda manfaatlar to'qnashuvi holatlari kelib chiqishining oldini olish manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishning quyidagi shakllaridan foydalangan holda Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan amalga oshiriladi:

Kombinat ijro apparati va uning tarkibiy bo'linmalarida vakant bo'lgan bo'sh ish joylariga nomzodlarni ishga qabul qilish, xodimlarni yuqori lavozimga tayinlash va ularni rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish;

Kombinat ijro apparati hamda uning tarkibiy bo'linmalarida ishlayotgan barcha xodimlar (shu jumladan, Boshqaruv a'zolari) tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya (ma'lumotnoma)lar yil yakuni bilan (yanvar oyining 31-sanasisiga qadar) oshkor qilish (choraklik deklaratsiya);

haqiqiy yoxud ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish fakti bo'yicha axborot va ma'lumotlar ro'yxatini Kombinatning rasmiy veb sahifasida va boshqa ommaviy axborot vositalarida oshkor qilishni ta'minlash (<https://agmk.uz/ru/menu/open-data-agmk>).

## **2-§ Bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni ishga qabul qilish, xodimlarni yuqori lavozimga tayinlash va ularni rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish**

15. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalardagi bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni ishga qabul qilish, xodimlarni yuqori lavozimga tayinlash va ularni rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda deklaratsiya qilish, Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmatiga quyidagi hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi:

mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha to'ldirilgan ma'lumotnoma;

nomzodlarni ishga qabul qilish, xodimlarni yuqori lavozimga tayinlash va rotatsiya qilish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoxud yo'qligi to'g'risida mazkur Nizomning 2 va 3-ilovalariga muvofiq shakldagi ariza to'ldiriladi.

Xodim tomonidan taqdim etilgan hujjatlar Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan ularda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoxud yo'qligi bo'yicha tekshiriladi.

Manfaatlar to'qnashuvi fakti aniqlanganida, Xodimlar bilan ishlash xizmati Kombinat boshqaruvi raisini, Kombinat Ichki nazorat tuzilmasini va/yoxud nomzod ishga qabul qilinishi rejalashtirilgan yoxud rotatsiya qilinishi nazarda tutilgan tarkibiy bo'linma faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kombinat boshqaruvi raisining tegishli o'rinbosarini zudlik bilan (48 soatda) rasman xabardor qiladi.

Boshqaruv raisining topshirig'i (buyruq, farmoyish yoxud fishka topshiriq) asosida Xodimlar bilan ishlash xizmati Kombinatning Odob-ahloq komissiyasi birgalikda, zaruratga ko'ra ijro apparati va tarkibiy bo'linmalarning rahbarlarini jalb qilgan holda manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralarini ko'radi.

## **3-§. Manfaatlar to'qnashuvini yillik deklaratsiya qilish**

16. Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni har yili deklaratsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Kombinat ijro apparati, tarkibiy bo'linmalardagi egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar barcha xodimlar hisobot davrida yuz bergan voqealar va o'zgarishlarni hisobga olgan holda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoxud yo'qligi to'g'risida ariza/deklaratsiyani Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmatiga bir yilda bir marta taqdim qilishlari shart;



Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan har yili 15 yanvargacha Kombinat boshqaruvi a'zolari, ijro apparati xodimlari, tarkibiy bo'linmalarga ularning xodimlarida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoxud yo'qligi haqida xabar berish zarurligi to'g'risida topshiriq xati yuboriladi;

Kombinat boshqaruvi a'zolari, ijro apparati xodimlari, tarkibiy bo'linmalar xodimlari har yili 30 yanvarga qadar mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda ariza (deklaratsiya) topshirishda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoxud yo'qligi haqidagi arizani to'liq va to'g'ri to'ldirishlari va imzolangan arizani (deklaratsiyani) Kombinat Xodimlar bilan ishlash xizmatiga taqdim qilishlari lozim;

Xodimlar bilan ishlash xizmati 10 fevralga qadar manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatgan xodimlarda manfaatlar to'qnashuvining haqiqatan mavjudligi yoxud yo'qligi bo'yicha olingan arizalarni tekshiradi va tahlil qiladi;

tekshirish va tahlil natijasida faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlar aniqlansa, bunday xodimlar haqidagi ma'lumot Kombinatning Odob-ahloq komissiyasi va Kombinat Ichki nazorat tuzilmasiga, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan takliflar bilan birgalikda taqdim qilinadi;

Kombinatning Odob-ahloq komissiyasi xodimning bevosita rahbari va (zarurat bo'lganda) xodim ishtirokida 20 fevralgacha manfaatlar to'qnashuvi holatini ko'rib chiqadi va manfaatlar to'qnashuvi bilan tavsiflanadigan vaziyatlarni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha yoxud manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi haqida qaror chiqaradi.

Mazkur qaror Odob-ahloq komissiyasi majlisining bayonnomasiga kiritiladi. Bayonnomada chora-tadbirlarni ishlab chiqishga mas'ul tuzilma (mansabdor shaxs) va muddatlar aniq belgilab qo'yiladi;

Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan 25 martgacha mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda Manfaatlar to'qnashuvi holatlari reestriga kiritiladigan manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqidagi elektron ma'lumotlarni jamlaydi va saqlaydi;

har yili I chorakda Xodimlar bilan ishlash xizmati manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish, aniqlash va hal qilish bo'yicha statistik raqamlar tahlili, mavjud muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan asosli taklif va yechimlarni Boshqaruv raisiga hamda Kombinatning Ichki nazorat tuzilmasiga kiritadi.

#### **4-§. Haqiqiy yoxud ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqish fakti bo'yicha deklaratsiya to'ldirish**

17. Haqiqiy yoxud ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi fakti bo'yicha ma'lumotlarni deklaratsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Kombinat xodimida manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqqanda, bunday xodim mazkur holat unga ma'lum bo'lgan paytdan boshlab bir ish kuni davomida bu haqda o'zining bevosita rahbariga haqiqiy yoxud ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi sifatida tavsiflanadigan holatni batafsil bayon etgan holda, mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shaklda xabar berishi lozim;

xodimning bevosita rahbari xodimdan yozma xabarni olgan paytdan boshlab uch ish kuni (72 soat) ichida manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni ko'rib chiqishi va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish bo'yicha taklif bilan xabarnomani Xodimlar bilan ishlash xizmatiga ro'yxatdan o'tkazish hamda tegishli choralarni ko'rish uchun taqdim etishi shart;

Xodimlar bilan ishlash xizmati xodimning bevosita rahbari bilan birgalikda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'radi, manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoxud manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi haqida xulosa tayyorlab, Boshqaruv raisiga hamda Kombinat Ichki nazorat tuzilmasiga yozma shaklda rasmiy ma'lumot kiritadi.

### **5-bob. Manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish choralari**

18. Kombinatda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida, aniqlangan haqiqiy manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari imkon qadar qisqa muddatlarda amalga oshirilishi lozim.

19. Kombinatda manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarishda quyidagi choralar belgilanishi kerak:

bevosita bo'ysunuvdagi xodimni, unga yaqin qarindosh bo'lmagan boshqa shaxs bo'ysunuviga o'tkazish;

manfaatlar to'qnashuvi predmeti bo'lgan masalalarni muhokama qilishda va ular bo'yicha qaror chiqarish jarayonida qatnashishdan xodimni uning ixtiyoriga ko'ra chetlashtirish, o'zini o'zi rad etishi yoxud uni majburan (doimiy yoxud vaqtincha) chetlashtirish;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik uchun xodimning lavozim majburiyatlari, vakolatlari, vazifa va funksiyalari doirasini qayta ko'rib chiqish;

xodim tomonidan uning shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan va manfaatlar to'qnashuvi predmeti bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlaridan foydalanishni cheklash;

yuqoriroq lavozimni egallab turgan yaqin qarindosh va (yoxud) aloqador shaxsga nisbatan lavozimni ko'tarish, faoliyatini baholash, mukofot pullarini to'lash va ish haqiga ustamalarni hisoblash, o'qishga va treninglarga hamda turli masalalar bo'yicha xorijga yuborish, mehnat ta'tiliga chiqishga rozilik berish va ish haqini nazorat qilish haqida jamoaviy tarzda qaror qabul qilinishini ta'minlash;

xodimni manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan mehnatga oid funksiyalarni bajarishini nazarda tutadigan lavozimga o'tkazish va boshqa holatlar.

20. Istisno holatlarda, ushbu Nizomning 19-bandida sanab o'tilgan choralar manfaatlar to'qnashuvini to'liq tartibga solmagan taqdirda, quyidagi qo'shimcha tartibga solish choralari qo'llanishi mumkin:

Xodimning o'z tashabbusi bilan Kombinat manfaatlariga to'qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

xodim tomonidan Kombinat manfaatlariga to'qnash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechmagan taqdirda, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida tavsiya beriladi.

21. Muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda, shuningdek manfaatlar to'qnashuvi predmetini belgilab beradigan faktidan kelib chiqib, Xodim bilan Kombinat o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra, yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi holatini hal qilishning boshqa choralari qo'llanilishi mumkin.

Ko'riladigan barcha choralar qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi, haqiqiy yoxud ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida ixtiyoriy ravishda xabar bergan xodimni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi, uning qonuniy huquq va erkinlarini cheklamasligi hamda mazkur Nizomda belgilangan tamoyillarga muvofiq holda amalga oshirilishi lozim.

22. Kombinatda Xodimlar bilan ishlash xizmati va xodimning bevosita rahbari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari va qabul qilingan qarorlar Odob-ahloq komissiyasining navbatdagi eng yaqin yig'ilishida ko'rib chiqilib, bu haqida majlis bayonnomasida aks ettiriladi.

23. Boshqaruv raisining topshirig'i, Kombinat Ichki nazorat tuzilmasi tashabbusi, xodimning e'tirozi yoxud shuningdek o'z tashabbusi bilan Xodimlar bilan ishlash xizmati va xodimning bevosita rahbari tomonidan, Odob-ahloq komissiyalarining manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlari, ularning xolisligi, yetarliligi, maqbulligi va asoslilikini qayta tekshirish huquqiga ega.

## **6-bob. Axborotning maxfiyligi**

24. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda qatnashadigan xodimlar olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi va ushbu ma'lumotlardan faqat ko'rib chiqish, hisobga olish va hal etish choralari ko'rish hamda ushbu jarayonni nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishini ta'minlashi lozim.

25. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy tuzilmalar xodimlarida manfaatlar to'qnashuvi fakti yoxud gumoni haqidagi xabar bilan Kombinatga murojaat qilinganida uni ko'rib chiqish Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan, Yuridik departament, Ichki nazorat tuzilmasi va boshqa mutasaddi bo'linmalar bilan hamkorlikda mazkur Nizom hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

## **7-bob. Reestrni yuritish va saqlashga qo'yiladigan talablar**

26. Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmati manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobini mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda Reestrga kiritish yo'li bilan o'z vaqtida va to'liq yuritishi shart.

Bunda, ijro apparati, tarkibiy bo'linmalarining Reestridagi ma'lumotlari Kombinat ijro apparatidagi Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan Kombinatning umumiy Reestriga birlashtirib boriladi. Umumiy Reestr nusxasi Ichki nazorat tuzilmasiga har chorak yakuni bilan rasman tasdiqlangan shaklda taqdim etiladi.

## 27. Ma'lumot Reestrda quyidagi hollarda kiritilishi kerak:

Kombinatga ilk marotaba ishga qabul qilishda – nomzod manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoxud yo'qligi haqida arizada manfaatlar to'qnashuvining mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa va Kombinat Odob-ahloq komissiyasi manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

xodimni lavozimga tayinlash/rotatsiya qilish vaqtida manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilishda – Kombinat boshqaruvi raisi tomonidan buyruq imzolangan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan;

manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishiga ko'ra – Kombinat Odob-ahloq komissiyasining bayonnomasi tuzilgan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirmasdan, bosharti Kombinat Odob-ahloq komissiyasi manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi faktini tasdiqlasa;

manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishiga ko'ra – Xodimlar bilan ishlash xizmati va xodimning bevosita rahbari tomonidan chora ko'rilgan taqdirda;

Kombinat xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlar har yili deklaratsiya qilinganda – mazkur Nizomning 14-bandiga muvofiq;

manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi haqida maxsus aloqa kanallaridan olingan ma'lumotlar tasdiqlanganda;

ichki xizmat tekshiruvlari o'tkazilganda, Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki normativ hujjatlarning va talablariga rioya qilinishi monitoring qilinganda hamda Kombinat ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Reestrda ma'lumot kiritish haqida bevosita ko'rsatma bo'lganida.

28. Xodimlarning manfaatlar to'qnashuviga tegishli bo'lgan ariza va xabarnomalari hamda boshqa ma'lumotlar belgilangan tartib va muddatlarda Xodimlar bilan ishlash xizmatida saqlanadi.

## **8-bob. Yakuniy qoidalar**

29. Egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, Kombinatning barcha xodimlari, ushbu Nizomning talablariga so'zsiz va qat'iy rioya qilish, shuningdek, o'z manfaatlarining to'qnashuvi to'g'risida Kombinat Xodimlar bilan ishlash xizmatiga, Kombinat Ichki nazorat tuzilmasiga zudlik bilan to'liq va to'g'ri ma'lumot berish bo'yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

30. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

“Olmaliq KMK” AJ  
va uning tarkibida Manfaatlarni to‘qnashuvini  
boshqarish to‘g‘risidagi Nizomiga 1-ilova

**Nomzod/xodim ma’lumotnomasining  
(Na’munaviy shakli)**

**MA’LUMOTNOMA**

**(F.I.SH. to‘liq)**

\_\_\_\_\_ (oxirgi ish joyida ish boshlagan sanasi):  
\_\_\_\_\_ (oxirgi egallagan lavozimi)

**Tug‘ilgan sanasi:**

**Tug‘ilgan joyi:**

**Millati:**

**Partiyaviyligi:**

**Ma’lumoti:**

**Tugatgan:**

**Ta’lim mutaxassisligi:**

**Ilmiy darajasi:**

**Ilmiy unvoni:**

**Qaysi chet tillarini biladi:**

**Harbiy (maxsus) unvoni:**

**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanday)?:**

**Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi yoki boshqa  
saylanadigan organlarning a’zosimi (to‘liq ko‘rsatilishi lozim):**

**MEHNAT FAOLIYATI**

рaсm

**(F.I.SH to'liq) yaqin qarindoshlari to'g'risida  
MA'LUMOT**

<b>Qarindoshlik darajasi</b>	<b>Qarindosh fuqaroning STIR raqami</b>	<b>Familiyasi, ismi, sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi va joyi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>	<b>Yashash manzili</b>

**(F.I.SH to'liq) yaqin qarindoshlari ustav kapitalida ulushga ega  
yoki boshqaruvida ishtirok etayotgan yuridik shaxslarga doir  
MA'LUMOTLAR**

<b>Yuridik shaxs nomi, STIR raqami, Davlat ro'yxatidan o'tgan raqami va sanasi</b>	<b>Egalik subekti va qarindoshlik darajasi</b>	<b>Egalik ulushi / boshqaruvdagi roli</b>	<b>Yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi</b>

**Tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etayotgan  
(F.I.SH. to'liq) va unga aloqador shaxslarga\* doir  
MA'LUMOTLAR**

<b>Tijorat tashkiloti nomi, STIR raqami, davlat ro'yxatidan o'tgan raqami va sanasi</b>	<b>Egalik ulushi</b>

\* Aloqador shaxslar ro'yxati xodim ustav kapitalida ishtirok etayotgan tashkilot haqidagi ochiq manbalardan olinadi.

**Ilk marotaba “Olmaliq KMK” AJga ishga qabul qilinayotganida Manfaatlar to‘qnashuvi  
mavjudligi yoxud mavjud emasligi to‘g‘risidagi arizaning  
NA’MUNAVIY SHAKLI**

F.I.SH. (to‘liq) \_\_\_\_\_

Nomzod da‘vogarlik qilayotgan

tarkibiy bo‘linma nomi \_\_\_\_\_

Nomzod da‘vogarlik qilayotgan lavozim \_\_\_\_\_

To‘ldirilgan sana \_\_\_\_\_

Ushbu arizada quyidagi atama va tushunchalar qo‘llaniladi:

**yaqin qarindoshlar** – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.

**aloqador shaxslar** – “Olmaliq KMK” AJ xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik Kombinatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

**mansabdor shaxs** - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat’iy nazar, bo‘linmalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs,

xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma‘muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – “Olmaliq KMK” AJ xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, Kombinatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o‘z xizmat (mansab va lavozim majburiyatlari) vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

1.	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki siz bilan aloqador shaxslar “Olmaliq KMK” AJ ijro apparatida yoxud tarkibdagi bo‘linmalardan birida ishlayotgan bo‘lsa, ularning egallab turgan lavozimi hamda xizmat qilayotgan tarkibiy bo‘linma (bo‘linma) nomini to‘liq ko‘rsating. <i>(basharti ular ishlamasa, “yo‘q” deb yozing).</i>
	<b>Ha / Yo‘q</b>
	<i>Izohlar:</i>
2.	Boshqaruv organi (boshqaruv, kuzatuv kengashi va h.k.) xodimi, a‘zosi, hissadori, ta‘sischisi, egasi, mulkdori, qandaydir tashkilot direktori yoki vakilimisiz? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek mazkur tashkilotlardan qancha miqdorda moddiy yoki boshqa naf olishingizdan qat‘iy nazar har qanday tashkilot, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o‘rningizni inobatga olgan holda javob berishingiz so‘raladi. <i>(Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblaridan birini tanlang;</i> <i>Basharti, javobingiz «Ha» ijobiy bo‘lsa, izohlar satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va ulardagi o‘rningiz (lavozimingiz, ulushingizni)ni ko‘rsatib o‘ting.</i>
	<b>Ha / Yo‘q</b>
	<i>Izohlar:</i>
3.	Siz va yaqin qarindoshlaringizning qandaydir tashkilotlarda qandaydir moliyaviy manfaatdorligingiz bormi? (jumladan, ustav kapitalida ishtirok etish, aksiya va obligatsiyalarga egalik qilish) yoki Siz boshqa tarzda bunday tashkilotlar qarorlariga ta‘sir ko‘rsata olasizmi? (Basharti, siz har qanday tashkilotning ommaviy muomalada bo‘lmagan aksiyalari yoki ustav kapitalidagi ulushi yoki har qanday tashkilotning Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjasining ommaviy muomalasida bo‘lgan qimmatbaho qog‘ozlarining 5 va undan ko‘p foiziga egalik qilsangiz). <i>(Izoh: Iltimos, «Ha» yoki «Yo‘q» javoblaridan faqatgina birini belgilang;</i> <i>Basharti, javobingiz ijobiy «Ha» bo‘lsa, «Izohlar» satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va Sizning ulardagi manfaatingiz turi ustav kapitalidagi ishtirokingiz ulushi, aksiyalarga egalik qilish va h.k. ko‘rsatib o‘ting.)</i>
	<b>Ha / Yo‘q</b>
	<i>Izohlar:</i>
4.	Yaqin qarindoshlaringiz va/yoki sizga aloqador shaxslar davlat organlari va tashkilotlarida, ularning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida muassasalarida ishlaydimi? <i>(Izoh:«Ha» yoki «Yo‘q» javoblaridan birini belgilang;</i> <i>Basharti, javobingiz «Ha» bo‘lsa, «Izohlar» satrida bunday qarindosh(lar), aloqador shaxs(lar)ning F.I.SH., STIR raqami, uning (ularning) lavozimi va bo‘linmasi/bo‘limi/boshqarmasini qayd etgan holda aniq ish joyini ko‘rsatib o‘ting.)</i>
5.	<b>Ha / Yo‘q</b>
	<i>Izohlar:</i>
6.	Yaqin qarindoshlaringiz boshqaruv organlari (boshqaruv, kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va h.k.) xodimi, a‘zosi, tashkilot rahbariyati yoxud vakilimi? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek mazkur tashkilotlardan qandaydir kompensatsiya olishidan qat‘iy nazar ularning har qanday tashkilot, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o‘rni hisobga oling. <i>(Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblaridan birini tanlang;</i> <i>Basharti, javobingiz ijobiy «Ha» bo‘lsa, izohlar satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi, STIR raqamlari va yaqin qarindoshingizning F.I.SH., STIR raqami, ulardagi egallab turgan o‘rni (lavozimlari)ni ko‘rsatib o‘ting.)</i>
	<b>Ha / Yo‘q</b>
	<i>Izohlar:</i>
7.	Yaqin qarindoshlaringiz davlat organlarining mansabdor shaxsi hisoblanadimi? <i>(Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblardan birini tanlang;</i> <i>Basharti, javobingiz ijobiy «Ha» bo‘lsa, izohlar satrida <u>bunday qarindoshingiz (laringiz)ning F.I.SH.), STIR raqami, uning (ularning) lavozimi va tashkilot nomini va STIR raqamini bexato ko‘rsatib o‘ting.)</u></i>
	<b>Ha / Yo‘q</b>



	<i>Izohlar:</i>
8.	Shaxsiy manfaatlaringizni ko'zlab, yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar manfaatlarini yo'lida maxfiy hisoblangan, davlat organlari va tashkilotlarida ishlash davomida ma'lum bo'lgan axborotdan foydalanganmisiz (jumladan, qandaydir jismoniy shaxs yoki tashkilotga oshkor qilganmisiz)? <i>(Izoh: «Ha» yoki «Yo'q» javoblaridan birini tanlang; Basharti, javobingiz ijobiy «Ha» bo'lsa, izohlar satrida bu haqida batafsil yozing)</i>
	<b>Ha / Yo'q</b>
	<i>Izohlar:</i>
9.	Manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar, holatlar va faktlar mavjud bo'lsa, ularning barchasini ko'rsatib o'ting
	<i>Izohlar:</i>
	Zarur deb hisoblasangiz, boshqa qo'shimcha ma'lumotlarni ham ko'rsatishingiz mumkin.
	<i>Izohlar:</i>

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

- Menda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobning tagiga chiziqcha torting).
- Men ushbu arizada aks etgan ma'lumotlar to'liq va haqqoniy ekanligiga, shuningdek men bergan ushbu ma'lumotlar tegishli huquq-tartibot idoralari tomonidan tekshirilishiga o'z roziligimni bildiraman.
- "Olmaliq KMK" AJda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom talablariga binoan, men tomonimdan yuqorida to'ldirilgan har bir arizaning to'liq, to'g'ri va haqqoniylikiga ta'sir qiladigan **yangi holat va tafsilotlar to'g'risida** "Olmaliq KMK" AJning ijro apparati Xodimlar bilan ishlash xizmatiga darhol xabar berish majburiyatini o'z zimmamga olaman.

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

**Rotatsiya/lavozimga tayinlanishda yoki yillik deklaratsiyani to‘ldirish vaqtida Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi/mavjud emasligi to‘g‘risidagi arizaning**

**NA’MUNAVIY SHAKLI**

F.I.SH (to‘liq), STIR raqami	
Nomzod da‘vogarlik qilayotgan tarkibiy bo‘linma nomi	
Nomzod da‘vogarlik qilayotgan lavozim	
To‘ldirilgan sana	
<p>Ushbu arizada quyidagi atamalar qo‘llaniladi:</p> <p><b>yaqin qarindoshlar</b> – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari.</p> <p><b>aloqador shaxslar</b> – Kombinat xodimi bilan boshqa tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik Kombinatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;</p> <p><b>manfaatlar to‘qnashuvi</b> – Kombinat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi, ushbu xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi fuqarolarning, tashkilotlarning, “Olmaliq KMK” AJning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;</p> <p><b>xodimning shaxsiy manfaatdorligi</b> – xodim tomonidan o‘z xizmat (lavozim va mansab vakolatlarini) vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);</p>	
1	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar Kombinatda ishlayotgan bo‘lsa, ularning ismi sharifi (F.I.SH.), STIR raqami, egallab turgan lavozimi va tarkibiy bo‘linma (korxonasi, sex, bo‘linma yoki xizmat) nomini to‘liq ko‘rsating ( <i><b>basharti ular “Olmaliq KMK” AJ boshqaruvi, ijro apparati yoxud tarkibidagi bo‘linmalarda ishlamas, javobingizda “YO‘Q” deb yozing.</b></i>
2	Basharti siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etsa (yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘lsa), sizning egallab turgan lavozimingiz manfaatlar to‘qnashuviga olib keladi deb o‘ylaysizmi? ( <i><b>Basharti, ishtirok etsa ularni ko‘rsating (ismi sharifi, tashkilot nomi, STIR raqami), ishtirok etmasa, “ishtirok etmaydi”, mabodo bunday holat manfaatlar to‘qnashuviga olib kelsa sababini ko‘rsating, olib kelmasa, “olib kelmaydi” deb ko‘rsating.</b></i>
3	Basharti siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki sizga aloqador shaxslar nodavlat notijorat tashkilotlarini boshqarishda qatnashsa, sizning egallab turgan lavozimingiz manfaatlar to‘qnashuviga olib keladi deb o‘ylaysizmi? ( <i><b>basharti ishtirok etsa ularni ko‘rsating, ishtirok etmasa, “ISHTIROK ETMAYDI”, mabodo bunday holat manfaatlar to‘qnashuviga olib kelsa sababini ko‘rsating, olib</b></i>

	<i>kelmasa, javobingizda “OLIB KELMAYDI” deb ko‘rsating).</i>
4	Sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki sizga aloqador shaxslar davlat idoralarida va tashkilotlarida ishlaydimi? Basharti javobingiz ijobiy “HA” bo‘lsa, tashkilotning rasmiy nomi, tegishli bo‘linma nomi, qarindoshingiz egallab turgan lavozim nomi, tashkilotning STIR raqami, qarindoshingizning STIR raqami va ismi-sharifini to‘liq ko‘rsating.
5	Sizda “Olmaliq KMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlari, shu jumladan mansabdor shaxslari tomonidan Kombinatning Odob-Ahloq Kodeksi qoidalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid boshqa ichki normativ hujjatlarini buzganligi to‘g‘risida yoxud ehtimoliy buzish bilan bog‘liq holatlar haqida ma‘lumotlar bormi? <i>(Izoh: «Ha» yoki «Yo‘q» javoblaridan faqat birini tanlang; Basharti, javobingiz ijobiy «HA» bo‘lsa, izohlar satrida bu haqida batafsil yozing va dalil-isbotlar, hujjatlar (audio, video, yozma hujjatlar va boshqalarni ilova qiling).</i>
6	Lozim deb topsangiz qo‘shimcha ma‘lumot va xabarlarini qayd eting.

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

- Menda manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobning tagiga chiziqcha torting).
- Men ushbu arizada aks etgan ma‘lumotlarning to‘liq, to‘g‘ri va haqqoniy ekanligiga hamda men bergan ushbu ma‘lumotlar huquq-tartibot organlari tomonidan tekshirilishiga o‘z roziligimni bildiraman.
- “Olmaliq KMK” AJda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom talablariga binoan, men to‘ldirgan har qanday arizani haqqoniylikiga ta’sir qiladigan **yangi holatlar to‘g‘risida** Kombinat ijro apparatidagi Xodimlar bilan ishlash xizmatiga darhol xabar berish majburiyatini o‘z zimmamga olaman.

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)



“Olmaliq KMK” AJ va uning tarkibida  
manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi  
Nizomga 5-ilova

\_\_\_\_\_ ga  
bevosita rahbarning F.I.SH. to‘liq, STIR raqami  
\_\_\_\_\_ dan  
F.I.SH. to‘liq  
\_\_\_\_\_  
tashkiloti, lavozimi  
\_\_\_\_\_  
aloqa telefon raqami

### Manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqishi ehtimoli haqida

#### X A B A R N O M A

“Olmaliq KMK” AJ Kuzatuv kengashining 202\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi  
“\_\_\_” – son buyrug‘iga asosan Men,

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH, lavozimi)

sizga manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqish ehtimoli haqida quyidagilarni xabar qilaman:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
(Shaxsiy manfaatlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) xizmat vazifalarini bajarishiga ta’sir qilayotgan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Kombinat va uning tarkibi manfaatlariga zid kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat batafsil tasvirlanadi).

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

#### Xodimning bevosita rahbari tomonidan to‘ldiriladi

Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish uchun quyidagi choralarni taklif qilaman: \_\_\_\_\_  
(manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish uchun ko‘rilgan choralar sanab o‘tiladi)

\_\_\_\_\_  
(rahbarning F.I.SH.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)